XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 25 - noyabr VI-70-215-7-94-K/22 Jomboy tumani hokimligi

Jomboy tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

Jomboy tuman hokimligining bildirish xatlari, tuman obodonlashtirish boshqarmasining, tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limining xatlari va tuman hokimi o‘rinbosarining bildirish xatlari hamda tuman hokimligi moliya bo‘limining xulosalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Budjeti kodeksi”ning 126-moddasiga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi VI–chaqiriq LXX-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Jomboy tuman mahalliy budjetining 2022-yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismini hisobidan mablag‘lar ilovaga muvofiq tadbirlarni amalaga oshirish uchun yo‘naltirilsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (G‘.Burxonov)ga budjetga tegishli o‘zgartirish kiritish va tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Ro‘ziyev)ga belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirish hamda tuman hokimligi bosh hisobchisi (I.Uralov)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minlash topshirilsin.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (S.Baxodirov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **J.Jumanov**

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 25 noyabrdagi
VI-70-215-7-94-K/22-son qaroriga
1-ilova

Jomboy tuman mahalliy budjetining 2022 yil 3-chorak daromadlar rejasiningoshirib bajarilgan qismini hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdori

Ming so'mda

№	**Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi**	**Xarajat turlari**	**Summasi**
2022-yil 1-oktabr holatiga daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi			**359 000,0**
1	Tuman hokimligi	Qishloq qurilish bankdan bo‘lgan qarzdorlik	70 000,0
2	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi texxodimlarga shaxsiy ustama, xaydovchilar, qorovullar, farroshlar santexnik va xo‘jalik mudiri 14 nafar har biriga mexnatga haq to‘lashning 1 baravari 920,0 ming so‘mdan 3 oylik va 25% ajratma bilan	48 300,0
3	Tuman hokimligi	APZdan bo‘lgan qarzdorlik uchun	40 000,0
4	Tuman hokimligi	Obuna xarajatlari uchun	40 000,0
6	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvatlash bo‘limi	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvatlash bo‘limining xizmat mashmnasi (matiz) joriy ta’mir uchun	8 500,0
7	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Siment olish uchun	10 000,0
8	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvatlash bo‘limi	“Qo‘ng‘irot” MFY binosi uchun	100 000,0
10	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Dizel yoqilg‘isi olish uchun	42 200,0
	Qoldiq		**0**